

## KICHIK SANOAT ZONALARINING HUDUDLAR IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI ROLI

**Esanaliev Otabek Yusupjonovich**

Namangan davlat texnika universiteti

o'qituvchisi

E-mail: [esanaliyevotabek2508@gmail.com](mailto:esanaliyevotabek2508@gmail.com)

### Annotatsiya

Mazkur maqolada kichik sanoat zonalarining hududlar iqtisodiy rivojlanishidagi roli ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot davomida kichik sanoat zonalarining sanoat ishlab chiqarishi, investitsiyalar hajmi, eksport salohiyati va yangi ish o'rinlari yaratishdagi ahamiyati baholandi. O'zbekiston hududlari kesimida 2020-2024 yillardagi statistik ko'rsatkichlar asosida ishlab chiqarish hajmlarining o'sish dinamikasi o'rganildi. Tahlillar natijasida kichik sanoat zonolari hududiy sanoat salohiyatini oshirish, iqtisodiy faollikni kengaytirish va tadbirkorlikni rivojlantirishning muhim mexanizmi ekani asoslandi. Tadqiqot yakunida sanoat simbiozi, raqamli boshqaruv, yashil iqtisodiyot va klasterli yondashuvlarni joriy etishga oid ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

**Kalit so'zlar:** kichik sanoat zonasi, hududiy iqtisodiyot, sanoat ishlab chiqarishi, investitsiya, eksport, bandlik, klaster, yashil iqtisodiyot, raqamli boshqaruv.

### Аннотация

В данной статье научно проанализирована роль малых промышленных зон в экономическом развитии регионов. В ходе исследования была оценена значимость малых промышленных зон в увеличении промышленного производства, привлечении инвестиций, развитии экспортного потенциала и создании новых рабочих мест. На основе статистических данных регионов Узбекистана за 2020-2024 годы изучена динамика роста объемов производства. Результаты анализа показали, что малые промышленные зоны являются важным механизмом повышения промышленного потенциала регионов, расширения экономической активности и развития предпринимательства. По итогам исследования разработаны научно-практические рекомендации по внедрению промышленного симбиоза, цифрового управления, зеленой экономики и кластерного подхода.

**Ключевые слова:** малая промышленная зона, региональная экономика, промышленное производство, инвестиции, экспорт, занятость, кластер, зеленая экономика, цифровое управление.

### Abstract

This article scientifically analyzed the role of small industrial zones in regional economic development. The study evaluated the importance of small industrial zones in increasing industrial production, attracting investments, expanding export potential, and creating new jobs. Based on statistical indicators of Uzbekistan's regions for 2020-2024, the dynamics of production growth were examined. The analysis showed that small industrial zones serve as an important mechanism for strengthening regional industrial capacity, increasing economic activity, and supporting entrepreneurship

development. As a result of the study, scientific and practical recommendations were developed regarding industrial symbiosis, digital management, green economy, and cluster-based approaches.

**Keywords:** small industrial zone, regional economy, industrial production, investment, export, employment, cluster, green economy, digital management.

## KIRISH

Kichik sanoat zonalarini iqtisodiy faollik, innovatsiyalar va aholi bandligini oshirishning dvigateli bo'lib, hududlarning o'sishi va rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shmoqda. Biroq, kichik sanoat zonalarining tashkiliysiz va tartibsiz rivojlanishi ularning mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishga qo'shadigan potensial hissasiga to'sqinlik qilishi mumkin. Rejalashtirish, infratuzilmalarni rivojlantirish va boshqaruvga tizimli yondashuvni qo'llash orqali tashkil etilgan kichik sanoat zonalarini iqtisodiyotni o'zgartirish, sanoatni diversifikatsiya qilish va inklyuziv o'sish katalizatoriga aylanishi mumkin.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirish, aholini ish bilan ta'minlash va sanoatning texnologik rivojlanishi bilan bog'liq muammolarni hal etishning muhim mexanizmlaridan biri industrial parklar, texnopolislar va sanoat zonalarini hisoblanadi. AQSh va Xitoyda - 400 tadan, Germaniyada - 200 ta, Turkiyada - 262 ta, Vyetnamda - 200 ga yaqin industrial parklar faoliyat yuritmoqda [2]. Mazkur zonalar ishlab chiqarishning zamonaviy texnologik bazasini shakllantirish, ishlab chiqarish jarayonlariga innovatsiyalarni joriy etish hamda ilm-fan sig'imi yuqori mahsulotlar yaratish va xizmat ko'rsatishni ta'minlashda asos rolini o'ynamoqda. O'zbekistonda sanoat ishlab chiqarishni jadallashtirishga muhim hissa qo'shuvchi kichik sanoat zonalarini barpo etish va ularni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, bu borada "milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish" maqsadlari belgilab berilgan [1]. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi "Kichik sanoat zonalarini to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 134-son Qaroriga [2] asosan: Kichik sanoat zonasi - ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun mo'ljallangan, aholi punkti hududining yoki aholi punktlararo hududning qonun hujjatlari bilan muayyan maqom berilgan hamda hududi doirasida xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmaga ega bo'lgan ishlab chiqarish maydonlari joylashadigan va chegaralari aniq belgilangan qismi.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Hududlarni rivojlantirishda kichik sanoat zonalarini va industrial parklarning iqtisodiy ahamiyati yuzasidan bir qator xorijiy olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Xususan, V. Millberg va M. Amengual o'z izlanishlarida industrial parklar iqtisodiy jihatdan qoloq va rivojlanish sur'ati past hududlar uchun muayyan darajada "iqtisodiy motivatsiya" vazifasini bajara olishini ta'kidlaydi. Olimlarning fikricha, bunday kichik sanoat zonalarini iqtisodiy rivojlanish uchun maxsus ajratilgan kichik ishlab chiqarish maydonlari hisoblanadi [3].

A. Agarvalning qarashlariga hamfikir holda, iqtisodchi olim J. Karimqulov ham kichik sanoat zonalarini iqtisodiy rivojlanishning muhim vositasi sifatida ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, foydalanilmayotgan bino va inshootlar negizida tashkil etiladigan kichik sanoat zonalarini davlat va xususiy sektor hamkorligining nodir namunasi hisoblanib, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish va eksport salohiyatini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, olimning asosiy izlanishlari erkin iqtisodiy zonalarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish yo'nalishlariga qaratilgan [4].

Iqtisodchi olim M. Raimjanova tadqiqotlarida kichik biznes va tadbirkorlikning hozirgi holati, ularga yo'naltirilayotgan investitsiyalar va ajratilayotgan kreditlar tahlil qilingan. Jumladan, xorijiy tajribalar o'rganilib, ular asosida kichik biznesni rivojlantirishga oid xulosa va takliflar berilgan. Muallif ayniqsa kichik sanoat zonalarini rivojlangan davlatlar amaliyotidan kelib chiqqan holda tashkil etish masalasiga alohida e'tibor qaratgan [5].

Kichik sanoat zonalarining hududlarni barqaror iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati xalqaro tadqiqotlarda ham keng yoritilgan. Xitoy tadqiqotchilari X. Chen va V. Janglar "township and village enterprises" (qishloq va shaharcha sanoat korxonalarini) faoliyatini o'rganib, ularning mahalliy iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini asoslab berdilar. Ularning xulosalariga ko'ra, mahalliy sanoat korxonalarini qishloq xo'jaligiga qaramlikni kamaytiradi, aholining daromad manbalarini diversifikatsiya qiladi hamda qishloq joylarda ish o'rinlari yaratish orqali urbanizatsiya jarayonlarini rag'batlantiradi [6].

O'zbekistonda kichik sanoat zonalarini rivojlantirish masalalari mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan B.T. Salimov va B.B. Salimov, A.A. O'roqov, Sh.Sh. Shodmonov, U.K. To'xtasinov, D.B. Tursunov hamda N.N. Yusupovlarning ilmiy tadqiqotlarida atroflicha o'rganilgan [9], [10], [11], [12], [13].

## **METODOLOGIYA**

Tadqiqotda tizimli yondashuv, statistik tahlili, qiyosiy tahlili va sintez usullari qo'llanildi. Ma'lumotlar manbai sifatida O'zbekiston Respublikasi Statistik qo'mitasining ma'lumotlari, moliya vazirligining hisobotlari va kichik sanoat zonalarini faoliyati bo'yicha ma'lumotlar asos qilib olindi.

Ushbu tadqiqotning metodologiyasi kichik sanoat zonalarining (KSZ) hududiy iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini obyektiv baholashga qaratilgan bo'lib, quyidagi bosqichlarni va usullarni o'z ichiga oladi:

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya kabi umumilmiy metodlardan foydalanildi. Hududiy iqtisodiyot nazariyalari va klasterli yondashuvlar tadqiqotning nazariy asosi bo'lib xizmat qildi.

Tahlillar uchun zarur bo'lgan empirik ma'lumotlar quyidagi manbalardan olindi:

O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi hamda hududiy statistika boshqarmalarining yillik hisobotlari;

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining kichik sanoat zonalarini faoliyati bo'yicha operativ ma'lumotlari;

Hududiy sanoat korxonalari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalar va bevosita kuzatish natijalari.

KSZlarning hudud iqtisodiyotiga qo'shayotgan hissasini aniqlashda quyidagi usullar qo'llanildi:

*Dinamik qatorlar tahlili* - KSZlarda ishlab chiqarish hajmi, eksport va investitsiyalar o'sish sur'atlarini vaqt bo'yicha o'zgarishini o'rganish uchun.

*Korrelyatsion-regression tahlil* - KSZlarga kiritilgan investitsiyalar hajmi va hududning yalpi sanoat mahsuloti (YSM) o'sishi o'rtasidagi bog'liqlik darajasini aniqlash uchun.

*Solishtirma tahlil* - KSZ mavjud bo'lgan va mavjud bo'lmagan tumanlardagi iqtisodiy faollikni o'zaro solishtirish orqali ularning samaradorligini baholash.

Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekistondagi faoliyat yuritayotgan kichik sanoat zonalarini tanlandi, ularning investitsion jozibadorligi va iqtisodiy samaradorligi baholandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ma'lumotiga ko'ra, so'nggi yillarda mamlakatimizda ochiq, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish, investitsiyalar va sanoatni rivojlantirish, tashqi savdo aloqalarini kengaytirish, mahalliy va xorijiy investorlar uchun jozibador ishbilarmonlik muhitini yaratishga qaratilgan qator izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Mutaxassislar ta'kidlaganidek, amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligi rivojlangan mamlakatlarning ilg'or tajribasi, milliy iqtisodiyot imkoniyatlari va mamlakat rahbariyatining yangilanish aholi turmush darajasini yaxshilash borasidagi siyosiy irodasi bilan uyg'unligi orqali ta'minlanmoqda.

Ishlab chiqarish va eksport salohiyatini jadal rivojlantirish, investitsiyalarni jalb etishning ilg'or jahon tajribasidan biri bu maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini tashkil etishdir.

2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, mamlakatda 766 ta sanoat zonasi tashkil etildi. Mazkur obyektlarning bosh rejalariga muvofiq investitsiya loyihalari uchun umumiy maydoni 11 ming 952,1 gektar yer ajratilgan.

2024-yilda sanoat zonalarida 841 ta loyihani ishga tushirish rejalashtirilgan.

2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, mamlakatda 766 ta sanoat zonasi, jumladan, 24 ta maxsus iqtisodiy zona, 532 ta kichik sanoat zonasi, 210 ta yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarini tashkil etildi.

Auksion orqali 4123,5 gektar yer maydoni, jumladan, maxsus iqtisodiy zonalarda 3 ming 304,8 gektar, kichik sanoat zonalarida 666 gektar, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarida 152,7 gektar yer maydonlari sotuvga qo'yilgan. Birgina joriy yilning yanvar oyida 100 gektardan ortiq yer auksionga qo'yildi.

Sanoat zonalarida amalga oshirilayotgan ishlar ko'lami yildan-yilga kengaymoqda. 2024-yilda sanoat zonalarida 841 ta loyihani ishga tushirish rejalashtirilgan. Bu 2023-yildagi ko'rsatkichdan (965 ta loyiha) 124 taga kam bo'lsada, bu o'zgarish yangi tashkil etilgan ishlab chiqarish quvvatlarining yiriklashishi va ish o'rinlari sonining ancha ko'payishi bilan bog'liq. Masalan, sanoat zonalarida

2023-yilda amalga oshirilgan loyihalarning umumiy qiymati 9,7 trillion so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda ushbu maqsadlar uchun 13,3 trillion so‘m jalb etiladi. Ish o‘rinlari bo‘yicha ham vaziyat xuddi shunday - 2023-yilda 20,7 ming, joriy yilda esa 27,7 ming ish o‘rinlari yaratish rejalashtirilgan.

2023-yilda sanoat zonalarida joylashgan korxonalar tomonidan 53,4 trillion so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, 972 million dollarlik eksport amalga oshirildi. Birgina joriy yilning yanvar oyida 4,4 trillion so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, shundan 61,3 million dollarlik mahsulot eksport qilindi.

2024-yilning birinchi kunlaridan boshlab sanoat zonalarida qizg‘in ish boshlab yuborildi. Sovuq kunlarda kuzatilayotgan sekinlashishga qaramay, 2024-yil yanvar oyida umumiy qiymati 56,6 milliard so‘mlik 14 ta loyiha foydalanishga topshirilib, 300 ta yangi ish o‘rni yaratildi. Shundan kichik sanoat zonalarida 54,1 milliard so‘mlik 12 ta, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarida esa 2,5 milliard so‘mlik 2 ta loyiha ishga tushirildi. [3]

1-jadval

**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi to‘g‘risida ma’lumot<sup>1</sup>, 2024-yil**

Sanoat subyektlari	Tarkibidagi korxonalar, soni	Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so‘mda
Jami:	5 396	79 979,6
MIZ	768	37 769,2
KSZ	2 494	37 769,2
Texnoparklar	1 694	9 505,6
Klasterlar	2 494	9 505,6

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi jami - 79 979,6 mlrd. so‘mni tashkil qildi, shundan: MIZda - 37 769,2 mlrd. so‘mni, KSZda - 9 505,6 mlrd. so‘mni, texnopark - 910,4 mlrd. so‘mni va klasterlarda - 31 794,5 mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Eng yuqori sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi maxsus iqtisodiy zona hissasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lib, 37 769,2 mlrd. so‘mni tashkil etgan.

Taqqoslash uchun: 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmi 62716,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi, jumladan: MIZda - 27 252,1 mlrd. so‘m, KSZda - 6 358,3 mlrd. so‘m, texnoparklarda - 427,2 mlrd. so‘m va klasterlarda - 28 679,2 mlrd. so‘m. [7]

Namangan viloyatida 2023-yil 31-dekabr holatiga 822,2 ga. yer maydonida jami 72 ta kichik sanoat zonalar mavjud bo‘lib, ushbu sanoat zonalarida jami 1245 ta loyiha joylashtirilgan, loyihalarning umumiy qiymati 10,1 trln. so‘mni tashkil qilgan. Shu bilan birgalikda hozirda jami 64614 ta yangi ish o‘rinlari yaratilgan hamda 4,2 trln. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilgan, 59,5 mln. AQSh dollarlik mahsulot ishlab chiqarilgan.

O‘zbekiston Respublikasida kichik sanoat zonalarida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmining 2020-2024 yillar davomidagi dinamikasi sanoat salohiyatining barqaror

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasi rasmiy ma’lumotlari [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

rivojlanayotganligini va hududlar kesimida sanoat tarkibining diversifikatsiya qilinayotganligini yaqqol namoyon etadi (1-jadval). Tahlillarga ko‘ra respublika bo‘yicha KSZlarida ishlab chiqarish hajmi 2020-yilda 2,69 trln. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 15,29 trln so‘mga yetgan. Bu besh yil ichida 5,6 barobarlik o‘shishni qayd etib, KSZlarining mamlakat sanoat siyosatida strategik ahamiyat kasb etib borayotganligidan dalolat beradi.

**2-jadval**
**Kichik sanoat zonalardagi korxonalarining ishlab chiqarish hajmi<sup>1</sup>, mln.so‘mda<sup>2</sup>**

№	Viloyatlar	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2024-yil 2023-yilga nisbatan
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	225690,0	308524,6	325178,6	339641,1	385346,6	113,5
2	Andijon viloyati	203224,1	227057,3	186865,5	517001,8	804852,2	155,7
3	Buxoro viloyati	51463,1	140473,5	193622,8	279586,3	404945,6	144,8
4	Jizzax viloyati	71085,2	57306,9	202069,2	192352,6	380416,0	197,8
5	Qashqadaryo viloyati	17060,5	43427,9	126426,0	188941,1	299189,3	158,4
6	Navoiy viloyati	2728,6	81638,8	204054,1	130153,0	222431,0	170,9
7	Namangan viloyati	91287,3	265006,8	544372,4	587829,4	1158007,5	197,0
8	Samarqand viloyati	62047,7	88115,8	85933,4	120181,7	580905,8	483,4
9	Surxondaryo viloyati	4337,8	14296,1	15268,5	31935,6	19130,0	59,9
10	Sirdaryo viloyati	32466,7	33010,0	45300,5	90868,5	128552,8	141,5
11	Toshkent viloyati	141875,6	347289,2	949335,5	2312143,7	4788381,5	207,1
12	Farg‘ona viloyati	78186,0	114104,0	309110,9	1043273,9	2807134,7	269,1
13	Xorazm viloyati	14421,6	22000,5	53601,6	57578,0	72224,4	125,4
14	Toshkent shahri	1698351,2	2222137,4	3117191,7	3614063,4	3242827,0	89,7
15	O‘zbekiston Respublikasi	2694225,4	3964388,9	6358330,8	9505550,0	15294344,2	160,9

O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va hududiy sanoat salohiyatini oshirishda kichik sanoat zonalarini (KSZ) muhim strategik ahamiyatga ega. Taqdim etilgan statistik ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2020-2024 yillar oralig‘ida mamlakat bo‘ylab KSZlardagi ishlab chiqarish hajmi keskin o‘shish tendensiyasini namoyon etgan.

Respublika miqyosida umumiy ishlab chiqarish hajmi 2020-yildagi 2 694 225,4 mln. so‘mdan 2024-yilga kelib 15 294 344,2 mln. so‘mga yetgan. Bu esa

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

<sup>2</sup>O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasi rasmiy ma’lumotlari [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

qisqa davr ichida qariyb 5.6 barobar o'sishni anglatadi. Ayniqsa, 2023-yildan 2024-yilga o'tish davridagi o'sish sur'ati 160,9% ni tashkil etib, iqtisodiy faollikning jadallashganini tasdiqlaydi.

Hududlar kesimida eng yuqori o'sish dinamikasi Samarqand viloyatida kuzatilgan bo'lib, 2024-yilda o'sish sur'ati 2023-yilga nisbatan 483,4% ni tashkil etgan. Toshkent viloyati (207,1%) va Farg'ona viloyati (269,1%) ham yuqori natijalarni qayd etgan. Bu hududlarda ishlab chiqarish infratuzilmasining yaxshilanishi va yangi quvvatlarning ishga tushirilishi asosiy drayver bo'lib xizmat qilgan.

Toshkent shahri mutlaq hajmlar bo'yicha yetakchilikni saqlab qolgan bo'lsa-da (3,2 trln so'mdan ortiq), uning 2024-yildagi o'sish sur'ati (89,7%) respublika o'rtacha ko'rsatkichidan biroz pastroq bo'lgan. Bu poytaxtda sanoat zonalarining to'yinish darajasi yuqoriligidan dalolat berishi mumkin.

Ijobiy tendensiyalar fonida Surxondaryo viloyatidagi ko'rsatkichlar biroz xavotirli ko'rinadi. Bu hududda 2024-yilgi ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan pasaygan (59,9%) va umumiy ishlab chiqarish hajmi respublika bo'yicha eng past darajada qolmoqda. Bu esa ushbu viloyatda KSZlarni boshqarish va rag'batlantirish mexanizmlarini qayta ko'rib chiqishni talab etadi.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Kichik sanoat zonalarini tashkil etish mintaqaviy iqtisodiy taraqqiyotni rag'batlantirish, sanoat o'sishini rag'batlantirish va tadbirkorlik subyektlarining rivojlanishi uchun qulay ekotizim yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Infratuzilmani rivojlantirish, sanoat klasterini shakllantirish, sarmoyalarni jalb qilish va malaka oshirishga ustuvor ahamiyat berish orqali tashkil etilgan kichik sanoat zonalarini o'z salohiyatini inklyuziv va barqaror rivojlanish mexanizmi sifatida ishga tushirishi mumkin. Samarali rejalashtirish, boshqarish va manfaatdor tomonlar o'rtasidagi hamkorlik uyushgan kichik sanoat zonalarining hududlarning iqtisodiy taqdirini shakllantirishda o'zgartiruvchi kuchidan foydalanish uchun muhim ahamiyatga ega. Hududlar farovonlik va barqarorlikka erishishga intilayotgan bir paytda, kichik sanoat zonalarini tashkil etish bo'yicha strategik sa'y-harakatlar yangi imkoniyatlarni ochib, innovatsiyalarni rag'batlantirishi va farovon kelajakka yo'l ochishi mumkin.

Kichik sanoat zonalarining (KSZ) hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi rolini oshirishga qaratilgan takliflar quyidagilar: Ushbu takliflar zamonaviy iqtisodiy tendensiyalar va O'zbekistondagi islohotlar (xususan, "O'zbekiston - 2030" strategiyasi) doirasida shakllantirilgan.

– "Sanoat simbiozi" va Klasterli yondashuvni joriy etish - KSZlar faqatgina tadbirkorlar jamlangan hudud bo'lib qolmasdan, balki o'zaro bog'langan zanjirga aylanishi kerak.

– KSZ ichida korxonalararo "Resource sharing" (resurslarni almashish) tizimini yo'lga qo'yish - Masalan, bir korxonaning chiqindisi ikkinchisi uchun xomashyo bo'lishi (aylanma iqtisodiyot modeli).

– "Digital Twin" (Raqamli egizak) texnologiyasini boshqaruvga tatbiq etish - KSZ faoliyatini monitoring qilish va prognozlashda zamonaviy IT yechimlardan

foydalanish zarur.

- KSZning raqamli pasportini yaratish va real vaqt rejimida energiya iste'moli, logistika va eksport hajmini kuzatuvchi yagona platforma yaratish.
- Eksport salohiyatini baholashning Samaradorlik indeksi metodikasini qo'llash.
- “Triple Helix” (Uchlik spiral) modelini hududiy darajada bog'lash- KSZlar va oliy ta'lim muassasalari (OTM) o'rtasidagi aloqani institutsional darajaga ko'tarish.
- Har bir yirik KSZ qoshida “Texnologiyalar transferi Markazi”ni tashkil etish - Bu yerda talabalar amaliyot o'taydi, olimlar esa biznesning real muammolariga ilmiy yechim topadi.
- Yashil iqtisodiyot va energiya samaradorligi drayveri - KSZlarni hududning eng “energiya tejamkor” nuqtalariga aylantirish.
- KSZ binolarining tom qismida quyosh panellarini o'rnatish va “Yashil sertifikat” tizimini joriy etgan korxonalariga qo'shimcha soliq imtiyozlarini berish.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi”gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-mart 134-son “Kichik sanoat zonalarini to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori <https://lex.uz/docs/-4758585>
3. W. Millberg, M. Amengual. Economic Development and Working Conditions in Export Processing Zones: A Survey of Trends. ILO Office, Geneva, 2008. 68 p.
4. Karimqulov J. Erkin iqtisodiy hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish yo'nalishlari. Monografiya. - Toshkent: Extremum-press, 2013.
5. Raimjanova M.A. Erkin tadbirkorlik hududlari faoliyatini rivojlantirish kichik biznes va tadbirkorlikni raqobatbardoshligini oshirish omili sifatida. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 4, avgust, 2017 yil
6. Chen, X., & Zhang, W. (2004). The Role of Township and Village Enterprises in China's Economic Development. Journal of Chinese Economic and Business Studies, 2(3), 193-210.
7. O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi rasmiy ma'lumotlari [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
8. Смольянинова.Т.Ю. Индустриальные парки в региональной экономике: механизм создания, перспективы развития. Автореферат диссертации. - Воронеж, 2015.
9. Salimov B.T., Salimov B.B. “Kichik sanoat zonalarini barpo etish va rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish”. - T.: Iqtisodiyot, 2020. - 135 b.
10. Shodmonov Sh.Sh. Kichik biznes va sanoat zonalarida asosida hududiy iqtisodiy o'sishni ta'minlash. Iqtisodiyot va ta'lim. Тошкент, 2019. №3.
11. To'xtasinov U.K. Sanoat zonalarida investitsiya muhitini yaxshilashning ustuvor yo'nalishlari. Moliya va bank ishi. Тошкент, 2020. №1.

12. Tursunov D.B. Hududiy sanoat siyosatini amalga oshirishda sanoat zonalarining oʻrni. Iqtisodiy islohotlar va innovatsiyalar. Тошкент, 2021. №2

13. Yusupov N.N. Kichik sanoat zonalarida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish. Biznes-ekspert. Тошкент, 2019. - №5.

14. Mannapova Sh.E. Oʻzbekiston kichik sanoat zonalarida investitsion faollikni oshirish yoʻnalishlari. Iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. - T.: TMI, -2021. -125 b.



# Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

**Muharrir:**

**Ingliz tili muharriri:**

**Rus tili muharriri:**

**Musahhih:**

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2026-yil, may, 5-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Bot:

[@marketingjournalbot](https://t.me/@marketingjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**